

This is not registered version of TotalDocConverter

Eshingiz maknada xonasida o'zining komanda harakatini do'xtur kresloga yastanib olganicha berilib televizordan futbol o'yinini tomosha qilyapti. Asabiylashib tez-tez sigaret chekaverganidan xona ichi tutunga to'la. O'yin avjida. Do'xtur har zamon "ha bo'l, chop, tep" deb qiyqirib qo'yadi. Xonaga kirib kelgan hamshiraga e'tibor ham bermaydi.

-B Do'xtur, hoy, do'xtur. Qabulxonaga bemor keldi. Nima qilay?

Do'xtur ikki ko'zi televizorda, qo'l siltaydi.

-B O'tqizib qo'y. So'ng... ha, ha, ur, ur...

-B Bemor qo'shni tumandan ekan.

-B Oshir deyaqman, oshir. Ha, tep. Unda yotqizma. O'zlariga borib yotsin...

-B Do'xtur, bemorni o'zimizning tez yordamda olib kelishdi-da. Bizning tumanga mehmonga kelib kasallanib qolganmish.

-B Unday bo'lsa, yotqiz. He, kallang qursin. Qayoqqa tepayotibsan?..

-B Izidan hech kim kelmabdi. Dori-darmonlarning haqini to'lashga puli ham yo'q ekan.

-B He, unda kutib tur. O'tqizma. Tekinga qiladigan dori bormi unga. Chop, chop...

-B Ahvoli og'irga o'xshaydi. Do'xtur, o'zingiz ham bir ko'rasizmi?

-B Og'ir bo'lsa, yotqizda. Nega qarab turibsan? Tep. Yugur. Bor. Boshni qotirma, ko'ryapsan-ku, bandman, B dedi do'xtur hamshiraga qarab jerkinib. B Oshir bu yoqqa.

Hamshira chiqib ketdi. Do'xtur boshidagi qalpog'ini olib tizzasiga urdi. U muxlislik qilayotgan komanda yengilayotgan edi.

-B Uf-f. O'yinni ham rasvo qilishdi. Trenerni haydash kerak. Ablahlar. Tekinxo'rlar...

Shu payt yana hamshira qiz hovliqib chopib kirdi va tovushini balandlatib dedi:

-B Do'xtur, deyman, do'xtur...

-B Ha, nima? Namuncha baqirasan? Qo'yanami o'zi, yo'qmi? Bu yoqda o'zi o'yin rasvo bo'lib turganda...

-B Do'xtur, bu yoqda bemor ham...

-B Xo'sh? Nima bo'ldi? O'tqiz dedim-ku?!

-B Bemor o'lib qoldi...

-B Ha, unda yotqizma. Qaytarib yubor. A?! O'lib qoldi?!

-B Ha, o'ldi. Og'ayinlari ham ustiga kelib qolishdi. Janjal qilishyapti. Do'xturni chaqir, deyishyapti. Nega birinchi yordam ko'rsatmadi, deyishyapti. Nima qilay? Do'xtur, nima qilay?

-B Obbo. Bu yog'i ham rasvo bo'libdi-ku. Men-chi? Men nima qilay? B deb do'xtur ko'zlari ola-kula bo'lib o'rnidan turib ketdi. Tashqaridan odamlarning baqirgani, tapir-tupur ovozlari eshitildi.

-B Do'xtur, siz endi qoching. Mana bu shkafga kiring...

Do'xtur deraza yoniga boradi. Hamshira baqiradi.

-B Voy, qayoqqa? U yoqqa emas, bu yoqqa, voy, bu yer ikkinchi qavat. Do'xtur, tashlamang. Shoshmang...

Derazadan tashqarida gursillagan va do'xturning "voy-voy"lagan ovozi eshitiladi. Hamshira boshini ushlab baqrayib qoldi.

-B Voy, o'lmasam. Endi nima qildim. Uf-f. Endi do'xturning o'zini yotqizaman, shekilli...

Hamshira shunday deb tashqariga yugurdi...